

MADANIY LANDSHAFT KONSEPSIYASINING MOHIYATI**S.I.Abdullayev** – *geografiya fanlari nomzodi, dotsent***I.B.Safarov** – *mustaqil tadqiqotchi**Qarshi davlat universiteti***СУЩНОСТЬ КОНЦЕПЦИИ КУЛЬТУРНОГО ЛАНДШАФТА****С.И.Абдуллаев** – *кандидат географических наук, доцент***И.Б.Сафаров** – *самостоятельный соискатель**Каршинский государственный университет***THE ESSENCE OF THE CULTURAL LANDSCAPE CONCEPT****S.I.Abdullayev** – *Candidate of Geographical Sciences, Associate Professor***I.B.Safarov** – *Independent Researcher**Karshi State University*

Tayanch soʻzlar: tabiiy landshadt, madaniy landshaft, madaniy landshaftning antropogen landshaft bilan nisbati, madaniy landshaft konsepsiyasi, madaniy landshaftning xususiyatlari.

Rezyume. Maqolada madaniy landshaft haqidagi ilmiy tasavvurlarning shakllanishi va rivojlanishi, uning zamonaviy landshaftlar tizimidagi oʻrni, madaniy landshaft konsepsiyasining mohiyati va oʻziga xos jihatlari, shuningdek uni oʻrganishning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib beriladi.

Ключевые слова: природный ландшафт, культурный ландшафт, соотношение культурного ландшафта и антропогенного ландшафта, концепция культурного ландшафта, особенности культурного ландшафта.

Резюме. В статье описывается формирование и развитие научных представлений о культурном ландшафте, его место в системе современных ландшафтов, сущность и особенности концепции культурного ландшафта, а также теоретическое и практическое значение его изучения.

Key words: natural landscape, cultural landscape, relationship between cultural landscape and anthropogenic landscape, concept of the cultural landscape, characteristics of the cultural landscape.

Summary. The article describes the formation and development of scholarly concepts of the cultural landscape, its place within the system of modern landscapes, the essence and specific features of the cultural landscape concept, as well as the theoretical and practical significance of its study.

Kirish: Sayyoramiz quruqlik qismining katta qismida inson taʼsiri natijasida tabiiy landshaftlar oʻzgartirilgan va ularning oʻrnida turli qonunlar asosida rivojlanadigan, bir-biridan sifat jihatidan farq qiladigan, birgalikda mavjud boʻlgan va oʻzaro taʼsirdagi tabiiy va sotsial-iqtisodiy geosistemalar yoki madaniy landshaftlar shakllangan. Madaniy landshaftlardagi tabiiy va sotsial-iqtisodiy geosistemalar orasidagi oʻzaro munosabatlarning murakkablashib borishi tufayli madaniy landshaftlarni oʻrganish eng qiyin muammoarga mansub. Shu sababli madaniy landshaftni kompleks oʻrganish atrof muhit prognozi uchun muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligieʼtiborga olingan holda ularni oʻrganishga qiziqiqish ortib bormoda, tadqiqot metodikasi ishlab ciqilmoqda va terminlalar bir xil shaklga keltirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: XX asrning birinchi yarmida Gʻarbiy Yevropada inson faoliyati taʼsiri ostida oʻzgargan landshaftlarni oʻrganishga eʼtibor kuchaydi va landshaftning tabiiy hodisadan “madaniy-geografik” hodisalar tomon oʻtishi sodir boʻldi. Bunday landshaftlar uchun “madaniy landshaft” termini keng qoʻllanila boshladi ularni oʻrganishga

doir tadqiqotlar natijasida “madaniy landshaft” maktabi shakllandi. Uning asoschilaridan biri boʻlgan nemis geografi O.Shlyuter inson faoliyati tufayli sodir boʻlgan katta oʻzgarishlarga qadar mavjud boʻlgan landshaftni (*Urlandshaft*) hamda inson madaniyati tomonidan yaratilgan landshaftni esa u *madaniy landshaft* deb ataydi. O.Shlyutter landshaftga uning komponentlaridan biri sifatida insonni ham kiritgan.

Madaniy landshaftni tadqiq qilishda va uning turli konsepsiyalarning yaratilishida L.S.Berg, K.Zauer, R.Hartshon, Yu.G.Saushkin, A.G.Isachenko, A.M.Rybachikov, N.A.Gvozdetskiy, F.N.Milkov, A.A.Abdulqosimov va koʻpgina olimlarning xizmatlari katta boʻldi. Oʻzbekistonda madaniy landshaftlarning turli jihatlari S.I.Abdullayev, H.A.Abduvaliyev, K.M.Boymirzayev, R.Holiqov, M.Nazarov, U.Vahobov kabi geograf olimlar tomonidan oʻrganilgan va tadqiq qilinmoqda.

Natija va muhokama: Turni bildiruvchi “madaniy landshaft” termini negizida lotincha “cultūra” (ekish, tuproqlarni, qishloq xoʻjalik yerlarini parvarishlash) soʻzi turadi. Bu termin “tabiiy landshaft” terminiga qarama-qarshi mazmunda qoʻllaniladi. Uning turli

ko'rinishlari inson tarixidagi tabiiy landshaftlar, shuningdek tabiiy-antropogen va antropogen-texnogen landshaftlar orqali namoyon bo'ladi. Asrlar davomida kishilar landshaftni imkoni bor joylarda ehtiyojlariga moslashtirganlar, bunday qilolmagan joylarda esa unda yashash sharoitlariga o'zlari moslashganlar. Shunday yo'l bilan madaniy landshaftlarning turli xillari shakllangan. Hozirgi vaqtda insonning asosiy hayoti va faoliyati aynan shunday landshaftlar doirasida amalga oshadi. Shu sababli landshaft (geosistema) konsepsiyasi keyingi 40-50 yil davomida sezilarli darajada o'zgardi. Uzoq vaqt davomida landshaft yopiq o'z-o'zini boshqaradigan sistema sifatida qaraldi. Endilikda madaniy landshaft ochiq dinamik makon-zamon sistemasi, "inson va tabiat hamkorligi" sistemasi sifatida qaraladi.

Ikkinchi jahon urushdan keyingi yillarda madaniy landshaftlarni ilmiy-amaliy jihatdan o'rganishga doir qator ilmiy ishlar paydo bo'ldi (Saushkin, 1946, 1947, 1951; Kotelnikov, 1950; Bogdanov, 1951; I.M.Zabelin, 1959; Neef, 1974; Stamp, 1976; A.G.Isachenko, 1991 va b.) bo'ldi.

Madaniy landshaftlarni o'rganish doirasida ko'plab masalalar hanuz to'liq hal etilmagan bo'lishiga qaramay, so'nggi o'n yilliklarda nazariy xarakterdagi ko'plab ishlar, amaliy tadqiqotlar hamda mintaqaviy izlanishlar paydo bo'ldi.

Hozirgi paytda madaniy landshaftlar to'g'risidagi tasavvurlar ham o'zgarmoqda va ular umumgeografik tushuncha, umumilmiy kategoriya sifatida qaralmoqda. "Madaniy landshaft" termini insonning atrof tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sirining ko'plab ko'rinishlarini qamrab oladi. Madaniy landshaftlarni o'rganishga doir tadqiqotlar doirasida ko'plab masalalar hanuz to'liq hal etilmagan bo'lishiga qaramay, so'nggi o'n yilliklarda nazariy sajiyadagi ko'plab ishlar, amaliy tadqiqotlar hamda mintaqaviy izlanishlar paydo bo'ldi. So'nggi yillarda madaniy landshaftni o'rganishga qiziqish ortib bormoqda, tadqiqot metodikasi va predmet sohasi ishlab chiqilmoqda, terminologiya unifikatsiya qilinmoqda [10].

Madaniy landshaft tushunchasi ko'p ma'noli bo'lib, uning izohlari turli fan sohalari va ilmiy maktablarda sezilarli darajada farq qiladi. Ko'p hollarda (L.S. Bergdan tortib Yu.G. Saushkingacha) "madaniy landshaft" termini deyarli antropogen landshaftning sinonimi sifatida qo'llanilgan. XX asrning 60-70 yillarida inson tomonidan vujudga kelgan landshaftlarni antropogen landshaftlar (termin terminini rossiyalik geograf A.D.Gojev 1930-yilda birinchi bor qo'llagan) deb atash rusumga kirdi. Shu sababli hozirgi landshaftlarni tasnif qilishda madaniy landshaftlar antropogen landshaftlar guruhiga kiritiladi yoki uning asosiy sinfi sifatida qaraladi. Bunday konsepsiyada madaniy landshaft antropogen

landshaftdan farq qilmaydi, ular strukturaviy aloqalar doimiy ravishda inson tomonidan melioratsiya, kultivatsiya, kimyolashtirish va boshqa tadbirlar orqali boshqarilib turiladigan landshaftlar (ekinzorlar, bog'lar va plantatsiyalar, madaniy yoki ekilgan yaylovlar va b.) sifatida qaraladi va antropogen landshaftlarning tom ma'noda madaniy guruhi deb hisoblanadi. Antropogen landshaft ta'sir darajasiga ko'ra *madaniy* (dala, o'tloq) va *buzilgan (nomadaniy)*, ya'ni sog'lom muhitni qayta tiklash funksiyasini bajarish qobiliyatini yo'qotgan landshaftlar ajratiladi [1; 2].

Nazariy-geografik yondashuv madaniy landshaftni tabiiy landshaft bilan to'liq tenglashtirib bo'lmaydigan, biroq tabiiy va madaniy komponentlar o'zaro bog'langan va teng huquqli tarzda namoyon bo'ladigan hodisa sifatida talqin etadi. Boshqa ko'plab yondashuvlardan farqli ravishda, bu yerda madaniy komponentlar tor ma'noda ("yuqori madaniyat" sifatida) emas, balki inson faoliyatining kvazisinonimi (ya'ni, keng ma'noda inson tomonidan amalga oshiriladigan har qanday madaniy-amaliy faoliyat) sifatida tushuniladi. Shunday talqin qilingan madaniy landshaftdan hech narsa chiqarib tashlanmaydi [4; 5].

Ko'pgina tadqiqotchilar madaniy landshaft inson va tabiatning hamkorligi natijasida shakllanadi deb hisoblagan holda antropogen va madaniy landshaftni ajratadilar. Madaniy landshaftlarda tabiiy va madaniy komponentlar tutashib ketgan va ularni ajratish hamma vaqt ham maqsadga muvofiq emas. Bu ikki asosning landshaftdagi nisbati uning xususiyatlarini belgilaydi, biroq bu hodisa negizida ulardan qaysi birining turishi doimo ham aniq emas. Chunki shunday geosistemalar mavjudki, ular inson faoliyati ta'sirida vujudga keladi, so'ngra ularning rivojlanishi tabiiy yo'l bilan boradi; boshqa tizimlar esa insoning aniq bir ehtiyojlarini qondirish uchun shakllanadi, davriy ta'sirda bo'ladi.

"Madaniy landshaft" termini insonning atrof tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sirining ko'plab ko'rinishlarini qamrab oladi. Ko'pgina hollarda madaniy landshaftlar tabiiy muhitning sajiyasi va imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan tabiatdan barqaror foydalanichning o'ziga xos texnologiyalarini aks ettiradi. Madaniy landshaft tabiiy landshaftlar va ekosistemalarning xususiyatlarini meros qilib oladi hamda ularni boyitadi.

Ayrim hollarda madaniy landshaft tabiat asosidagi madaniyat elementlari sifatida qaraladi. Bunday konsepsiyada madaniy landshaft tabiiy asosini saqlab qoladi va meros qilib oladi. Madaniy elementlar tabiiy asosni to'ldirib turadi va tabiiy elementlarning qonuniyatlariga bo'ysunadi. An'anaviy qishloq landshafti aynan shunday xususiyatga ega.

Madaniy landshaftni tabiiy landshaftning bevosita davomi sifatida tushunishdan voz kechish, aslida, tabiiy landshaft tushunchasini inkor etishni

anglatmaydi. Aksincha, bu yondashuv uning mazmunini kengaytiradi, rivojlantiradi va chuqurlashtiradi. Boshqacharoq qilib aytganda, madaniy landshaft yana bir tabiiy omil – inson omili ta'sir ko'rsatgan landshaftdir. U inson va uning madaniy faoliyati mahsulotlarini o'z ichiga oladi.

Olimlarning ko'pchiligi tuzilmasi inson tomonidan muayyan maqsad bilan jamiyat manfaatlarini ko'zlagan va ilmiy asoslangan holda (biologik mahsuldorlikni oshirish, rekreasiya, aholi manzilgohlarini bunyod etish va b.) oqilona o'zgartirilgan landshaftlarni madaniy landshaftlar deb atashadi. Shunday qilib, madaniy landshaftlar sifati yaxshilangan, unumdorligi oshirilgan, insonning mehnat qilishi, dam olishi, estetik zavqlanish uchun qulay o'zgartirilgan landshaftlardir.

Madaniy landshaftda tabiiy va sotsial-iqtisodiy geosistemalar ochiq chatishgan (hybrid) sistemani hosil qiladi; bu sistemada asosiy funksiyalar inson tomonidan nazorat qilinadi. Shu sababga ko'ra bu sistemaning maqsadlari jamiyatning e'tiboriga bog'liq holda har xil. Madaniy landshaftlarni boshqarishda insonning sog'lom rivojlanishi uchun sharoitlarni saqlab qolgan holda kishilik jamiyatining optimal ehtiyojlarini qondirishni, ya'ni tabiiy geosistemalarning to'g'ri faoliyat ko'rsatishini ta'minlashdan iborat.

Madaniy landshaftning bunday konsepsiyasida antropogen landshaft madaniy landshaftning bir turini hosil qiladi. Barcha tabiiy va antropogen komponentlarni o'z ichiga oladigan madaniy landshaft insonning o'zini muayyan amaliy ehtiyojlarini qondirish uchun ongli, maqsadli faoliyati natijasida shakllanadi va madaniy meros obyektlarining o'ziga xos toifasini hosil qiladi. Madaniy landshaftning bunday tushunchasida uch xil ta'rifga ega:

- madaniy landshaft inson tomonidan aniq bir dastur asosida o'zgartirilgan va yuqori darajadagi estetik va funksional sifatlarga ega bo'lgan "yaxshi" antropogen landshaft;

- madaniy landshaft – uzoq tarixiy davr davomida kishilarning muayyan guruhi yashagan joy;

- ko'pgina hollarda madaniy landshaftlar tabiiy muhitning sajiyasi va imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan yerdan barqaror foydalanishning o'ziga xos texnologiyalarini aks ettiradi. Madaniy landshaftlarni saqlash yerdan foydalanishning hozirgi metodlarining rivojlanishiga, shuningdek landshaftning tabiiy afzalliklarini (qiymatini) saqlash yoki kuchaytirishga imkon berishi mumkin. Yerdan foydalanishning hozirgi an'anaviy metodlari sayyoramizning ko'pgina rayonlarida bioxilma-xillikni asrashga imkon beradi.

Madaniy landshaft konsepsiyasining gumanitar jihatlariga yaqinroq yondashuv B. B.Rodoman tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u ilmiy va loyihaviy amaliyotga qator yangi kategoriyalarni, jumladan, "qutblashgan madaniy landshaft" tushunchasini

kiritdi. Madaniy landshaftning xususiyatlari — bu qutblashgan landshaftning xususiyatlari bo'lib, unda, bir tomondan, tabiiy landshaftning funksiyalari (muhitni qayta shakllantirish, resurslarni tiklash, biosfera genofondini saqlash va boshqalar) saqlanishi kerak; ikkinchi tomondan esa, inson hayotining moddiy va ma'naviy jihatdan qulay sharoitlarini yaratish maqsadida «joylar» va «rayonlar»ni obodonlashtirish funksiyalari bajarilishi kerak. Qutblangan madaniy landshaft inson tomonidan oqilona «loyihalashtirilgan» holda kelajakdagi noosferaning asosi bo'lishi lozim.

Madaniy landshaft konsepsiyasi zamonaviy geografik qobiq gorizontal tuzilmasining shakllanish jarayonlari bilan bog'liq. Madaniy landshaft — bu fraktallik prinsipi asosida shakllanuvchi mahalliy hududiy tuzilma bo'lib, u o'z tarkibiga geografik qobiqning barcha tabiiy va sotsial iqtisodiy komponentlarini — abiotik, biotik, biokos, ijtimoiy va ma'naviy unsurlarni — qamrab oladi. Bunday landshaftning vertikal tuzilmasi "qatlamlilik" orqali namoyon bo'ladi va u tabiiy qatlam, moddiy madaniyat qatlami hamda madaniy qatlamni (madaniy meros, an'anaviy va yangicha madaniyatlar) ajratish bilan bog'liq.

Madaniy landshaftning gorizontal tuzilmasi esa turli landshaft guruhlarining birikmasi, ularning zonal-provinsial va azonall-provinsial areallarini ma'lum hududlar doirasida shakllanishini anglatadi.

To'liq shakllangan madaniy landshaft o'z ichiga madaniy va tabiiy komponentlarni oladi, ular qo'shimcha "joylar" va o'zaro kirishib ketgan tarmoqlar sifatida namoyon bo'ladi. Uni "uzluksizlik va uzilish (kontinuallik va diskretlik)"ning dialektik uyg'unligi, turli shakl va o'lchamdagi obyektlarning uyg'unlashuvi, "joylar"ning samarali qo'shnichiligi, ko'pincha "chegaraviy o'tish zonalari (ekotonlar)"ning ijobiy xarakteri, mo'tadil politsentrizm, komponentlarning nisbatan mustaqilligi, darajalar o'rtasidagi ko'p pog'onali tuzilma, keng ko'lamli funksional-pragmatik, semantik va ramziy uyg'unlik, mazmun va faoliyat uchun katta sig'im, turli aholi guruhlarining birgalikda mavjudligi, shuningdek, makon va vaqt, evolyutsiya va tarix, o'z-o'zidanlik va ongli yaratuvchanlikning murakkab uyg'unligi bilan ajralib turadi.

Universal xossaga ega bo'lgan madaniy landshaft geografik (mahalliy ekologik sharoitlarga moslashuv), tarixiy (tabiatdan foydalanish sajiyasining tarixiy o'zgarishlari) va madaniy (insonning tabiatga ma'naviy munosabatining namoyon bo'lishi) kontekstda bo'ladi. Bir butunlik, ya'ni uning moddiy obyektlari, mental xossalari va tabiatdan foydalanishning an'alarining tugallanganligi, birligi, uyg'unligi va saqlanganligi madaniy landshaftning ikkinchi muhim xossasidir. Madaniy landshaftning autentikligi deb uning bir butunlik

xossalari bilan bog'langan haqiqiyliги, ishonchliligi tushuniladi [7; 9].

Madaniyat xiliga, shuningdek sotsial-madaniy va xo'jalik faoliyatining sajiyasiga bog'liq holda joyning madaniy o'zlashtirilishning va monand holda, madaniy landshaftlarning turli xillari shakllanadi [10]. Barcha tabiiy va antropogen komponentlarni o'z ichiga oladigan madaniy landshaft madaniy meros obyektlarining o'ziga xos toifasini hosil qiladi. Madaniy landshaftning meros obyekti sifatidagi maqomi YUNESKOning xujjatlarida 1992-yilda qayd qilingan. Predmetlar yoki axborotlar ko'rinishida saqlanadigan madaniy meros madaniy landshaftning muhim qismidir. U asosiy omil sifatida muayyan joydagi aholining turmush tarzini belgilaydi, o'ziga xos me'morchilik, arxeologiya, etnologiya, toponomika, folklor va umuman madaniy turmushning barcha jihatlarini shakllanishining sharoiti bo'ladi; bunday holda madaniy landshaftning o'zi meros obyekti bo'lib qoladi. Uning ayrim turlari tarix va madaniyatning harakatsiz yodgorliklarining ayrim turlariga (muzey-qo'riqxonalar, saroy-bog'ansablari) to'g'ri kelishi mumkin.

Madaniy meros obyektlari umumiy tarmog'idagi madaniy landshaftni ochish (topish), tipologiya, tavsiflash va taqdimoti madaniyat yodgorliklari bo'yicha axborot tizimlarini yaratish bo'yicha an'anaviy yondashuvlar doirasidan tashqariga chiqadi va maxsus ilmiy-metodik ishlanmalarni taqoza etadi. Tabiiy va madaniy meroslarni asrab qolishda landshaftlar, birinchi navbatda madaniy landshaftlar bilan ish olib borishni taqoza etadi [4; 7; 8].

Xulosa. Shunday qilib, madaniy landshaft Yer yuzasining tabiiy va sotsial-iqtisodiy (antropogen) geosistemalari birgalikda mavjud bo'lgan hududlardir. Madaniy landshaft tabiat va insonning tadrijiy o'zaro ta'siri, uning sotsial-madaniy va xo'jalik faoliyati natijasida shakllangan hamda barqaror o'zaro aloqa va o'zaro taqozadagi tabiiy, madaniy va sotsial-iqtisodiy komponentlarning o'ziga xos barqaror birikmalaridan iborat bo'lgan tabiiy-madaniy hududiy kompleksdir. Madaniy landshaft hududning jamiyat tomonidan o'zgartirilgan hozirgi holatini va barcha sotsial-iqtisodiy tadbirlar ta'siri ostida bo'lgan hududning doimiy ravishda foydalanilishi bilan bog'liq holda o'zgarayotgan tabiiy komplekslarini anglatadi.

Landshaftlarni o'rganish bilan tabiiy geografiya muhim tarkibiy qismi bo'lgan landshaftshunoslik shug'ullanib keldi. Landshaftshunoslik tabiiy geografiya va biologiya tutashgan sohaga kiradi, madaniy landshaftlar holatida esa u ba'zi ijtimoiy fanlar bilan ham kesishadi.

Geografik sistemani hosil qiladigan madaniy landshaft ijtimoiy-iqtisodiy geografiya tomonidan ham o'rganilmoqda. U iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar hamda hodisalarni hududiy, geografik nuqtai nazardan tadqiq etadi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, bir tomondan jamiyat rivojlanishining qonunlariga, ikkinchi tomondan esa tabiat qonunlariga tayanib, "tabiat – aholi - xo'jalik" tizimidagi hududiy o'zaro ta'sirlarni tahlil qilish va bashorat qilish bilan shug'ullanadi.

Shuningdek, madaniy landshaftni kisilarning ehtiyojlarini optimal qondirish nuqtai nazaridan uni yaratish va rivojlantirish nazariyasiga fanlararo hamkorlikda ham e'tiborni kuchaytirish zarur.

Adabiyotlar

1. Абдуллаев С.И., Усманов И. Маданий ландшафт – умумгеографик тадқиқотлар предмети. // Антропоген ландшафтшunoslik. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: 2014.
2. Абдувалиев Ҳ.А. Маданий ландшафт: тушунчаси ва таснифи. // Орол минтақаси ва қўшни ҳудудларда комплекс географик тадқиқотларнинг муаммо ва истикболлари. Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. Нукус шаҳри, 15-16 май 2018 йил.
3. Берг Л.С. Предмет и задачи географии. // Изв. РГО. 1915. Т. 51. Вып. 9.
4. Веденин Ю.А., Кулешова М.Е. Культурный ландшафт как объект культурного и природного наследия. // Известия РАН. Серия географическая, 2001, № 1. – С.7-17.
5. Демек Я. Теория культурного ландшафта. // Международная география. 76. Общая физическая география. 5. - М.: 1976. – С. 9-12.
6. Джеймс П., Мартин Дж. Все возможные миры. История географических идей. - Москва: Прогресс, 1988.
7. Исаченко А.Г. О двух трактовках понятия "культурный ландшафт". // Известия РГО. 2003. 135. № 1. – С. 5-16.
8. Каганский В.П. Культурный ландшафт: основные концепции в российской географии. // Обсерватория культуры. 2009. №1. – С.62-70.
9. Калущков В.Н. Представления о культурном ландшафте: от профессионального до мировоззренческого. // Вестник Моск. ун-та. Серия 5. География. 2000. №4. – С. 3-6.
10. Культурный ландшафт. // Культурный ландшафт Русского Севера: Пинежье, Поморье. -М.: 1998.